

XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON O'LKASIDA ME'MORCHILIK VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Botirov Bobur Bahodir o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti 1-kurs magistranti

Email: bbotirov99@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkistonning XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida me'morchilik sohasida yuz bergan o'zgarishlar, ularga ta'sir etgan omillar, yangi uslublarning paydo bo'lishi, me'morchilikning rivojlanish tarzi haqida so'z boradi. Maqolada, shuningdek, o'lkada me'morchilik sohasida olib borilgan ishlar hamda bu o'zgarishlarning ijobiy va salbiy jihatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: me'morchilik uslublari, rus qal'alari, arxitektor, an'anaviy me'morchilik, uch nurli kompozitsiya, pishiq g'isht, metall konstruksiya, qurilish materiallari, pechka, radial – halqa, tarh.

ARCHITECTURE AND ITS SPECIFIC CHARACTERISTICS IN THE COUNTRY OF TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY - THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Abstract: This article talks about the changes that took place in the field of architecture in Turkestan in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century, the factors that influenced them, the emergence of new styles, and the development of architecture. The article also discusses the works carried out in the field of architecture in the country and the positive and negative aspects of these changes.

Key words: architectural styles, Russian fortresses, architect, traditional architecture, three-beam composition, brick, metal structure, building materials, stove, radial-ring, design.

KIRISH

Turkistonda Rossiya imperiyasi tomonidan XIX asrning ikkinchi yarmida o‘rnatilgan mustamlakachilik tuzumi nafaqat mahalliy aholini siyosiy huquqlardan mahrum etdi, balki milliy madaniy qadriyatlarini tahqirladi. O‘lkada ruslashtirish siyosatini zo‘ravonlik bilan singdirish boshlandi, rus-tuzem maktablari ko‘paya bordi. Rossiya Turkiston o‘lkasiga madaniyat olib kelgan, degan soxta fikrlar tashviq qilina boshlandi. Bu davrda Turkistonda juda murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisalar bilan birga, uning madaniy hayotida tez va shiddatli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shu jumladan, me’morchilikda ham tub o‘zgarishlar ro‘y berdi. Podsho Rossiyasi ta’sirida o‘lkaga Yevropa me’morchiligi an’analari va uslublari ham majburiy ravishda kirib kela boshladi. Ushbu tadqiqot ishi bu davrda me’morchilikda yuz bergan o‘zgarishlar va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida so‘z yuritadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqot ishining adabiyotlar tahlili va metodologiyasiga kelsak, mavzu shu paytgacha alohida o‘rganish ob’ekti bo‘limgan. Turli mualliflar asarlarida fragment (parcha) tarzida o‘rganilgan. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, mavzu doirasidagi ma’lumotlar, asosan, arxitektura, me’morchilik va madaniyat tarixiga bag‘ishlangan asarlarda uchraydi. Tadqiqot mavzusiga oid ma’lumotlarni M.A.Koroli, M.R.Jo‘rayev, B.A.Baymuxamedov hammuallifligida yozilgan “Zamonaviy Toshkent (Me’morchilik tarixi va an’analari)” asaridan, T.Sh.Mamatmusayevning “O‘zbekiston tarixiy shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi” nomli arxitektura bo‘yicha fan doktorlik (dsc) dissertatsiyasidan, K.Normatov, SH.Q.Alimov, R.U.Ernazarov va boshqalarning “Madaniyatshunoslik” kitobidan, M.K.Ahmedovning “O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi” asaridan, A.S.Pisarchikning “Samarqand xalq me’morchiligi”

monografiyasidan hamda U.Qoraboyev, G. Soatovning “O‘zbekiston madaniyati” asaridan olishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Turkistonga ruslar bosqini natijasida yangicha yevropa usulidagi me’morchilik uslublari kirib kela boshladi. Bu jarayon bir nechta asosiy omillar asosida sodir bo’layotgan edi. Birinchidan, O’rta Osiyoga ruslar kirib kelgandan so‘ng, ular shahar arki hamda qo‘rg‘on devorini buzishgan va rus qal’alarini bunyod etishgan. Bunday qal’alar sof harbiy ko‘rinishga ega bo‘lib, asosan, tayanch va nazorat qilish uchun qurilgan edi. Masalan, 1865-yilning yoz va kuz oylarida barpo etilgan yangi inshootlardan shunday maqsad ko‘zlangan. Bularning asosiysi Toshkent bosib olinganidan so‘ng darhol qurilish ishlari boshlab yuborilgan yangi qal’a edi. Bu qal’a olti burchakli ko‘rinishga ega bo‘lib, 1865-yilning sentyabr oyida butunlay qurib bo‘lindi. Uning uchta darvozasi bo‘lib, shaharni bosib olishda jonbozlik ko‘rsatgan harbiy zabitlarning, nomi bilan, ya’ni Obuxa, Xmelev, Mesyatsev deb atalgan edi. Qal’aning ichida esa, 6 ta piyoda askarlar rotasi uchun turar joy binolari, 150 o‘ringa ega bo‘lgan harbiy shifoxona, o‘q-dori omborlari joylashgan. Bu yerda harbiy qurilishlar katta guruhining joylashganligi tasodifiy emas edi. U Qo‘qon va Qoshg‘ar darvozalariga eltadigan yo‘lni nazorat ostiga olgan bo‘lib, zarurat tug‘ilgan hollarda qo‘shinlarni eski shahar markaziga zudlik bilan tashlash imkonini yaratgan [4. B.75-76]. Bundan tashqari, rus qo‘shinlarining bostirib kirishlari va xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar natijasida XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida me’moriy obidalarning ko‘pchiligi vayron qilingan va qayta tiklanishi zarur bo‘lib qolgan edi [4, B.54-55]. Ikkinchidan, rus kapitalizmi, boshqa til va dindagi xalqning O’rta Osiyo hududlariga kirib kelib o‘rnashishi bevosita shahar tuzilishiga ta’sir ko‘rsatdi. Uchinchidan, ayrim mahalliy hukmdorlarning me’morchilik sohasida o‘tkazgan islohotlari natijasida yangicha uslublar o‘lkaga kirib keldi. Masalan, XX asr boshlarida Qo‘qon xonligida islohotlar o‘tkazildi. Islohotlarning boshida Xudoyorxon turar edi. U ichki siyosiy islohotlarni o‘tkazishdan tashqari, yangi ta’lim maktablari, shifoxona, dorixona, aloqa bo‘limlarini qurish zarurligini anglab yetdi hamda ularni

qurish uchun zarur mablag'lar ajratdi. Qurilishning yangi tamoyillar asosida olib borilishiga, chetdan olib kelinuvchi materiallardan keng foydalanishga katta e'tibor berildi. Qurilishda mahalliy ustalar bilan birgalikda taklif qilingan arxitektorlar ham faol ishtirok etdilar[4, B.61]. To'rtinchidan, XX asr boshida shaharlar strukturasiga temir yo'llarning o'tkazilishi ham katta ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, shaharlarning temir yo'llar o'tgan hududlarida ishlab chiqarish zonalari rivojlangan. Bu jihat bugungi kunda ham shaharlar strukturasida yaqqol ko'zga tashlanadi[5, B.26]. O'lkada temir yo'l transportining paydo bo'lishi, tosh yo'l va obodonlashgan rus shaharchalarining qurilishi, qishloq xo'jaligida ba'zi ratsional usullar va yangi ekinlarning joriy qilinishi dehqonchilik va hunarmandchilikda ancha takomillashgan qurollarni ishlatish kabi o'zgarishlar mahalliy xalqlarning xo'jalik-madaniy rivoji hamda maishiy turmush tarziga asta-sekin ijobiy ta'sir ko'rsata boshladi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Jizzax kabi shaharlarda boy tabaqa vakillari – rus turar joy inshootlariga o'xshash uylar qura boshladilar[1, B.190.]

Ana endi o'lkadagi me'morchilikning qay tarzda rivojlanib borganligi va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritsak. O'rta Osiyo me'morchiligi va shaharsozligi XIX asr oxiri XX asr boshlarida quyidagi uch yo'sinda taraqqiy etdi:

1. Yevropa shaharsozligining kirib kelishi va O'rta Osiyo shaharlaringin yangicha qiyofasi.
2. Mahalliy me'morchilik va rus arxitekturasining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan yangi muhandislik qurilishi yechimlari.
3. An'anaviy me'morchilikning rivoji.

Rus kapitalizmi, boshqa til va dindagi xalqning O'rta Osiyo hududlariga kirib kelib o'rnashishi bevosita shahar tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. Bunda sotsial munosabatlar shaharlarni kengaytirishda Yevropa shaharsozligida qo'llanib kelinayotgan ikki xil usulni tatbiq etishni taqozo qildi. Birinchisi — bu eng qadim zamondan Hindistonda va Xitoyda ma'lum bo'lgan hamda Yevropa shaharsozligida Milet shahrining tarhini tuzgan me'mor Gippodam nomi bilan bog'liq bo'lgan "gippodamova planirovka" deb ataladigan muttasil (regulyarnaya planirovka) tarh

tuzish va uning asosida shahar bunyod etish hisoblanadi. O‘rtta Osiyoda muttasil katakli shahar tarhi ko‘rinishida Bishkek, Olma Ota kabi shaharlar bunyod etildi. Yevropa shaharsozligining ikkinchi ko‘rinishi — bu uch nurli kompozitsiya ko‘rinishidir. Bunday usulni yana Moskva shahrining tuzilishiga muqoyasa etib radial – halqa (ruschasiga radialno-kolsevaya planirovka) tarh tuzilishi deb ham atashadi.

O‘rtta Osiyoga ruslar kirib kelgandan so‘ng, ular shahar arki hamda qo‘rg‘on devorini buzishgan va rus qal’alarini bunyod etishgan. Ushbu qal’alar ark o‘rnida yoki unga yaqin hududda shakllangan. Ba’zi shaharlarda rus qal’asi mavjud saroy yoki boshqaruv binolariga joylashtirilgan edi. Shu tariqa yangi shaharlar uchun rus qal’asi yadro hisoblanib, uning atrofida shahar kengayadi. Aksariyat shaharlarda rus shaharlari uch nurli tarzda va radial-halqasimon sxemada shakllangan. XIX asrning oxiri – XX asr boshi O‘zbekiston hududlaridagi shahar madaniyatining rivojlanishi asosan rus ma’murlari, harbiylari va aholisi yashaydigan “yangi” qismlarda zamonaviy infratuzilmalar yaratish bilan cheklanilib, mahalliy aholi yashaydigan “eski” qismlar esa XVI-XIX asr darajasida qoldi. Bu davrdagi shahar madaniyati va shaharsozlik mustamlaka manfaatlari doirasida rivojlanib, mahalliy aholi manfaatlari inobatga olinmadi. Bu holat esa shaharsozlik madaniyatining notekis rivojlanishiga olib keldi. Bu davr shaharlarida yonma-yon ikki xil manzara – rus aholisi uchun zamonaviy infratuzilmalarga ega yangi shaharchalar hamda mahalliy aholi yashovchi, zamon talablaridan ortda qolgan, o‘tgan asr qiyofasidagi shaharlar yaqqol ko‘zga tashlanib turgan edi. Yangi shaharlarda to‘g‘ri va keng ko‘chalar o‘tkaziladi. Ular xavfsizlik nuqtai nazaridan yagona yadro tarafdan tarqalgan nursimon tarzda rejalanigan edi[5, B.26]. “Samarqand xalq me’morchiligi” monografiyasining muallifi A.S.Pisarchik haqqoniylig bilan yondashib, ta’kidlagan ediki, shahar atrofining turar joy qurilishi sohasida me’morchilikda eskirib qolgan xususiyatlar ko‘p darajada saqlangan, bozorga yaqin joylashgan, savdogalar ko‘proq o‘rnashgan, yangi moda, did va manfaatlarni olib keladigan ko‘plab xorijliklar kelib-ketib turgan markaziy dahalar birinchi bo‘lib barcha yangiliklarni o‘zlashtirgan. Turar joy qurilishi sohasidagi ushbu o‘zgarishlar uy

taxining, rejalashtirishning o‘zgarishida, yangi qurilish materiallarini ishlatalishda, bezaklar bilan bezashning yangi usullarini qo‘llashda namoyon bo‘ladi[6, 33].

Shunday qilib Samarqand, Toshkent, Ashxobod, Namangan. Qo‘qon, Andijon, Yangi Marg‘ilon (Farg‘ona) kabi shaharlarning yangi qismlari shu usulda kengaytirildi. Bunda ko‘pincha O‘rta asrlarda bunyod etilgan ark, o‘rda yoki qal‘a o‘rniga o‘sha shaharlar harbiy hokimi qarorgohi qurilib undan kengayib boruvchi ko‘chalar bunyod etilgan. Hamma holatlarda ham yangi hokim qo‘rg‘oni oldiga keng xiyobon tarzidagi maydon – esplanada tashkil qilinganligini ko‘rish mumkin. Bunda ba’zan ko‘chalarni kengaytirish va yangi qo‘rg‘onlarni bunyod etishda eski tarixiy va me’moriy obidalar buzilib yo‘q qilindi[3, B.132]. 1860-yillar oxirlarida hozirgi O‘zbekiston jumhuriyatining asosiy yerlari bosib olingan bo‘lsa, 1992-yilgacha bo‘lgan davrda juda ham ko‘p imoratlar qurildi. Qasr va saroylar me’morchiligining namunalaridan biri Toshkentdag‘i Nikolay Konstantinovich saroyining mahalliy qasrlarga, Yevropa me’morchiligi ta’sirini esa Kogondagi Buxoro amiri qasri, Karmanada vayronalari saqlanib qolgan Charmgar – Chorbog‘ iqomatgohi va Buxoro yonidagi Sitorai Mohi Xossa saroylarida ko‘rish mumkin. Toshkent, Samarqand, Fargonadagi harbiy yig‘ilish binolari, gubernator inshootlari, turarjoy kvartallari, markaziy ko‘chaldagi cherkovlar, magazinlar, madaniy va ma’muriy ahamiyatdagi binolar O‘rta Osiyoning an’anaviy me’morchiligi namunalaridan yaqqol ajralib turadi[3, B.134].

Rus kapitalizmi kirib kelishi natijasida turarjoy binolari, savdo inshootlari, yangi tipdag‘i muktab, cherkov kabi fuqaro inshootlari bilan bir qatorda fabrika, zavod, bank kabi binolar ham qurila boshlandi. Ularning qurilishida rus an’anaviy me’morchiligi shakllari bilan bir qatorda Yevropada taraqqiy etgan gotika, Uyg‘onish davrining barokko va klassizm singari uslub belgilari namoyon bo‘ladi. Yevropa me’moriy uslublariga mahalliy me’morchilik an’analari, qurilish materiallari, amaliy san’at namunalari ta’sir ko‘rsatib, o‘ziga xos yangiliklar yuzaga keldi. Xuddi shuningdek, O‘rta Osiyo me’morchiligiga Yevropa muhandislik yutuqlari ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatdi. Jumladan, sanoat asosida ishlab chiqarilgan uzunchoq pishiq g‘ishtlar,

metall konstruksiyalar, qurilish materiallari, pechka singari yangi isitish sistemasi, cherdakli tomlar va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Bunda ayniqsa turarjoy binolari qurilishi sohasida ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Ahvol shunga yetib keldiki, inqilobga qadar mahalliy me’morchilikdagi Yevropa ta’siri yanada chuqurlashib, XX asrda yevropacha ko‘rinishdagi juda ham noqulay binolar turlari paydo bo‘ldi. O‘rta Osiyoga keltirilgan yevropacha turarjoy binolari nusxasi yaxlit cherdakli to‘rt burchak tom ostiga joylashgan xonalar majmuasidan iborat edi. Undagi xonalarning bir nechtasiga bitta yo‘lakdan kirilishi, toming qulayligi, isitish sistemasi, derazalarning har tomonga chiqishi bu turdagи binolarning tez orada keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Taxminan, bir asrlik vaqt ichida ming yilliklar davomida O‘rta Osiyoda yuzaga kelgan, atrofi o‘rab olingan hovlili uyning asosiy elementi qilib olingan imoratlar o‘rniga o‘ta noqulay tur – hovlining bir burchagigagina joylashtirilgan imorat qurish an’anaga aylanib qoldi[3, B.133]. Turkistonga ruslar ko‘chib kelishining kuchayishi turli shaharlarda Yevropa va Sharq-Yevropa uslubida qurilgan binolarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Masalan, Toshkentdagi knyaz Romanov saroyidagi zallar o‘zbek ustalari tomonidan sharqona bezatilgan. Shuningdek, bu davrda ruslarning ta’siri natijasida qadimiy shaharlar atrofida yo‘ldosh shaharlar paydo bo‘la boshladi. Masalan, bиргина Toshkent shahri eski va yangi shaharlarga bo‘linib, Anhor kanali orqali ajralib turgan. 1865- yildan qurila boshlagan yangi shaharda Yevropa uslubidagi binolar qurilgan bo‘lsa, eski shahar o‘zining sharqona uslubi bilan ajralib turgan. Marg‘ilon shahridan 8 kilometr chamasi uzoqlikda yangi shahar — hozirgi Farg‘ona (Sobiq Skobelev) shahri qad ko‘tara boshlagan. Natijada, Turkiston arxitekturasi Sharq va G‘arb me’morchiligi sintezi sifatida shakllana borgan[2, B.120].

Sharq me’morchiligi an’analardan foydalanish 1910-yilda qurila boshlagan «Xiva» kinoteatrining binosi loyihasida ko‘zga tashlanadi. Me’morlar o‘rta asr mahalliy me’morchilikka xos bo‘lgan shakllarni: ravoqli derazalar, peshtoqlar va panjaralarini, boshqa milliy me’morchilik an’alarini qo‘llashga intildilar[4, B.78].

XX asrning boshlarida qurilgan binolarning asosiy qismini karvonsaroylar va xonlikning qarorgohi hisoblangan saroylar tashkil etadi. Ularning tashqi tomonlari,

asosan, pishiq g‘isht yoki g‘ishtni naqshli tartibda terish va turli ko‘rinishdagi karnizlar bilan bezalgan holda yaratilgan. Bu binolarning o‘ziga xos xislatlari shundan iborat ediki, ular milliy arxitektura an’analarini ham o‘zida namoyon etar edi. Masalan, bu uylarning tomlari mahalliy uy qurish an’analaridan, ya’ni milliy me’morchilikning asosiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bir tekis qilib yaratilgan edi. Yevropacha turdag'i, yozda o‘zida issiqlik manbaini vujudga keltirib, kechki vaqtarda turar joydagi ahvolni yomonlashtirib yuboradigan cherdakli ko‘rinishdan voz kechilib, milliy an’analarga xos bo‘lgan, yozda isib ketmaydigan, atmosferadan yog‘iladigan yog‘inlarning ko‘p bo‘lmasligiga moslangan va issiqdan yaxshi himoyalash xususiyatiga ega bo‘lgan tomlar bilan yopildi. Bunday turdag'i tom yopish uslubi XX asrning boshlarida harbiy va boshqa barcha ko‘rinishlarda asosiy o‘rin egalladi. Bunday binolarga namuna sifatida biz jamoat maqsadlariga mo‘ljallab qurilgan bir qator binolar, shuningdek, savdo markazi vujudga kela boshlagan shaharning sharqiy qismidagi do‘konning yirik, bir qavatli binosini misol sifatida keltirishimiz mumkin[4, B.80].

XULOSA

Tadqiqot ishimizga xulosa qilar ekanmiz, Turkistonga ruslar bosqini natijasida yangi me’moriy uslublar kirib keldi. Bu jarayonning borishiga bir nechta omillar sezilarli darajada ta’sir etib, yangi uslublarning tarqalishiga zamin yartadi. Me’morchilik bu davrda o‘ziga xos uslubni taqazo etib, uch turda rivojlanib bordi. Ammo yangi uslublarning kirib kelishi ba’zi salbiy oqibatlarga olib kelganligini ham aytib o‘tish joizdir. Taassufki, Yevropa muhandislik ilmi bilan birga kirib kelgan ilg‘or qurilish va me’morchilik usullarini o‘zlashtirishda bir yoqlamalikka yo‘l qo‘yildi. Yevropadan nimaki kirib kelsa, barchasi ilg‘or va aksincha – mahalliy barcha an’analar zararli, eskirgan, degan noto‘g‘ri aqida yuzaga keldi. Natijada bir qator ijobiy me’moriy ilmlar unutildi. Jumladan, o‘rta asrlar me’morchiligidagi handasaviy uyg‘unlashtirish usullari, naqsh bog‘lash san’ati, koshinkorlik, gumbaz, qanoslar bog‘lash va shu singari qator an’analar qadrsizlanib, iste’moldan chiqib ketdi. Bugungi kunda qadimiylar qadriyatlar qaytadan o‘rganilib chiqilmoqda va undan foydalanish

choralari qidirilmoqda. Shunday bo‘lsa-da, bu davr me’morchilik madaniyati tarixda o‘ziga xos ahamaiyat kasb etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Normatov K., Alimov SH.Q., Ernazarov R.U.va boshq. Madaniyatshunoslik: Darslik. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IV Akademiyasi, 2017.
2. Qoraboyev U., Soatov G. O‘zbekiston madaniyati. O‘zR. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011.
3. Аҳмедов М.К. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи: Олий ўқув юрт.учун ўқув қўлланмаси.— Т.: Ўзбекистон, 1995.
4. Короли М.А., Жўраев М.Р., Баймухамедов Б.А. Замонавий Тошкент (Меъморчилик тарихи ва анъаналари). Ўқув қўлланма, Тош.дав.техн. уни-ти, 1999 й.
5. Маматмусаев Т.Ш. ЎЗБЕКИСТОН ТАРИХИЙ ШАҲАРЛАРИНИНГ ШАҚЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ. Архитектура бўйича фан доктори (dsc) диссертацияси автореферати. – Т., 2019.
6. Писарчик А.К.. Народная архитектура Самарканда XIX – XX вв. Душанбе, Издательство "Дониш", 1974.

